



ISMOIL SOMONIY – O‘RTA ASRLARNING SERG‘AYRAT VA ZUKKO DAVLAT ARBOBI

Mahkamov Sunnatilla Xasan o‘g‘li

*Jizzax davlat pedagogika universiteti, Sirtqi bo‘lim,
tarix yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Vatanimiz tarixida faoliyat ko‘rsatgan Somoniylar davlatining yirik hukmdori, zukko davlat arbobi Ismoil Somoniy haqida fikr yuritiladi. Ismoil Somoniyning o‘z davlatini barpo etish va rivojlantirishdagi amalga oshirgan islohotlari mavjud adabiyotlar tahlili asosida yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: Somoniylar davlati, Ismoil Somoniy, Ahmad ibn Asad, Tohiriylar davlati, Nasr, Safforiy Amir ibn Lays, xalifa Mu‘tazid, Somoniylar davri devonlari, ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Vatanimiz ko‘plab allomalar, fozilu-ulamolar, sarkardalar va hukmdorlar hamda bir qator, o‘tmishi buyuk shaxslarni o‘z bag‘rida dunyoga keltirgan, kamol topishida ulkan ahamiyat kasb etgan maskanlar biri hisoblanadi. Ajdodlarimizning qahramonliklari, olib borgan keng qamrovli islohotlari, qoldirgan memuar asarlari, ko‘rsatgan jasoratlari hozirda tildan tilga o‘tib, o‘z tariximizni bunyod bo‘lishiga xizmat qilmoqda. Har bir davrning, davlatning, ma‘lum madaniy o‘lka va tuzumning faoliyat qahramonlari bo‘lganidek, biz fikr yuritmoqchi bo‘lgan o‘rta asrlarning yirik davlat arboblari asosiysi Ismoil Somoniydir.

Dastavval, Somoniylar davlati va uning faoliyati tarixiga biroz nazar tashlasak, Somoniylar haqidagi ma‘lumotlar mo‘g‘ullar davriga qadar O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha arab va fors tillarida yozilgan deyarli barcha manbalarda keltirilgan. Somoniylar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan, lekin bizgacha yetib kelmagan “Somoniylar xonadoni tarixi” nomli maxsus asar bo‘lganligi haqida tadqiqotchilar o‘z ma‘lumotlarini berib o‘tadilar. Somoniylar haqida ba‘zi ma‘lumotlarni mo‘g‘ullar davridan



keyin yozilgan manbalarda ham uchratish mumkin. Birgina, Mirxondning umumiy tarixga bag'ishlangan "Ravzat us-safo" asarida Somoniylar hukmronligi tarixiga alohida bo'lim bag'ishlangan. Somoniylar sulolasi haqida boy ma'lumotlar hujjat manba hisoblangan numizmatik materiallar, ya'ni tarixiy tangalarda ham mavjud bo'lib, ular yozma manbalardagi ma'lumotlarni anchagina to'ldiradi va aniqliklar kiritadi [Shamsiddin Kamoliddin., 2024. 3-4 b.].

Shu o'rinda, Ismoil Somoniy va uning faoliyati tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, Ismoil Somoniy 849-yilda [Farg'onada](#) tug'ilgan. Uning otasini ismi [Ahmad ibn Asad](#) edi.

Tohiriylar davlatining barham topishi bilan vaziyat tubdan o'zgarib, istiqloq uchun qulay sharoit paydo bo'ladi. O'z holiga tashlab qo'yilgan Buxoro ahli hatto Safforiylarga tob'e bo'lishni hohlamaydi. Shahar zodagonlari Somoniylarga murojaat qilib, Samarqandga Nasr huzuriga elchilar yuboradilar. Elchilik xabarida undan Buxoroni o'z qo'l ostiga olishini va Somoniylar xonadonidan bir kishini Buxoroga hokim qilib yuborishni so'raydilar. O'z navbatida Nasr bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilib, ukasi Ismoilni 874-yilda Buxoroga noib qilib yuboradi.

Keyingi davrlarda aka-uka o'rtasida adovat paydo bo'ladi va bu esa [888-yilda ikki o'rtadagi](#) jangga olib keladi. Jangda Nasr qo'shinlari tor-mor keltiriladi. [892-yildan](#) boshlab Ismoil butun [Movarounnahrni](#) birlashtirib, uning yagona hukmdori bo'lib oladi.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Ismoil Somoniy o'rta asrlarning qobiliyatli, serg'ayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi edi. U [Movarounnahrni](#) birlashtirgach, mustahkam davlatni tuzishga intildi. U o'z Vatanida barqaror tinchlikni ta'minlab, uni mustahkamlashda hukmronlik qobiliyatining hamma nozik xususiyatlarini ishga soldi. Avvalo, katta qo'shin to'plab, ko'chmanchilar dashtiga askar tortdi. [893-yilda Taroz](#) shahrini fath etib, dashtliklarga qaqshatqich zarba berdi. Bu Somoniylar davrida ko'chmanchilarga qarshi qilingan oxirgi katta yurish bo'ldi. Natijada, Ismoil Somoniy butun Movarounnahrni o'z qo'li ostida kuchli bir davlat qilib birlashtirdi. Keyinchalik, Xurosonda tashkil topgan Safforiylar _____ davlatiga barham berdi va uni ham o'z _____



davlatiga qo‘shib oldi. Natijada poytaxti [Buxoro](#) shahri bo‘lgan, zamonasining eng yirik mustaqil, islomiy davlati tashkil topdi.[www.wikipedia.org internet sayti]

Shonli o‘tmishimizdan hozirgi kunga qadar yetib kelgan tarixiy ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, Ismoil Somoniy o‘z davri uchun uzoqni ko‘ra biladigan, g‘oyat serg‘ayrat, o‘z zamonasining hohish irodasini chuqur anglab yetgan hukmdor hisoblangan. Buyuk bir davlat tuzish va uni o‘sha davr uchun munosib shart-sharoitlar bilan ta’minlay olgan davlat arbobi sifatida tarixda qolgan shaxs edi.

Bu davr siyosiy tarixi juda murakkab bo‘lib, kuchayib borayotgan va mustaqillika intilayotgan Ismoil Somoniy siyosati Arab xalifaligini tashvishga solayotgan edi. Shu bois xalifa Mu’tazid Ismoil Somoniy bilan Xuroson noibi Amir ibn Laysni bir-biriga gijgijlab, ikki o‘rtada urush keltirib chiqarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. 900-yilda Ismoil hal qiluvchi jangda Amir ibn Laysni yengib Xurosonni ham o‘ziga qo‘shib oladi. Natijada, xalifa Mu’tazid Ismoil Somoniy davlatini tan olib, unga hukmdorlik yorlig‘ini yuborishga majbur bo‘ldi. Buning oqibatida, IX asr oxirlarida Movarounnahr Arab xalifaligi istibdodidan butunlay xalos bo‘ldi. Shu asnoda, Somoniylar davlatida markaziy va viloyatlar boshqaruvi tizimi Ismoil Somoniy davrida uzil-kesil qaror topdi.

Ismoil Somoniy o‘z davlati markaziy boshqaruv tizimini dargoh va devon orqali amalga oshirilgan. Markaziy boshqarma 10 ta devondan iborat bo‘lgan: vazir devoni, mustavfiy devoni (xazina (moliya) kirim chiqimlar), amid al-mulk devoni (davlat hujjatlari va elchilik aloqalari), mumollikayi xos devoni (davlat mulklari), sohibi shurat devoni (harbiy ishlar), sohibi muayyid devoni (maktubot va axborot), mushrif devoni (saroy ish boshqaruvchisi), muxtasib (bozorlardagi toshu-tarozilar, narx-navo hamda fuqarolarning mafkurasi), qazo devoni (adliya), avqof devoni (masjid va madrasalarning vaqf xo‘jaliklari). Devonlarning eng kattasi vazir devoni bo‘lib, boshqalari unga bo‘ysungan. [Sultonov F. 2007.106-b.]

Aytish mumkinki, Ismoil Somoniy o‘z davri uchun, nafaqat ulkan imperiya tuzdi, balki bu davrda o‘zaro o‘zaro kurashlar, ichki boshboshdoqliklarga barham berib, mustahkam davlat tuza olgan shaxs _____ sifatida tarixda qoldi.



Ismoil o'z boshqaruvi ostida bo'lgan barcha shahar va qishloqlarda obodonlashtirish va qurilish ishlarini ham amalga oshirdi. U davlat yakdilligini ta'minlash, bosqinchilik ishlarini amalga oshirmoqchi bo'lgan barcha g'animlariga qarshi muvaffaqiyatli janglar olib bordi. Faqatgina qo'shin hamda siyosat ishlarni amalga oshiribgina qolmasdan, ijtimoiy, madaniy hayotda ham islohotlar orqali, ko'pgina oldinga siljishlarni amalga oshirdi [Vohidov Sh., 2013.107-b.].

Somoniylar davlati bir asrdan ko'proq umr ko'rdi. Ismoil Somoniy davridan so'ng, ya'ni 907-yilda bu davlat hududida ichki nizolar, siyosiy boshboshqoqliklar kuchaydi, aholidan olinadigan soliqlar va ularni turli majburiy ishlarga safarbar qilish ko'paydi. Aholining keskin noroziliklari, turli yillardagi g'alayonlar, hukmdor sulola a'zolarining fitnalari davlat hokimiyatining kuchini yanada zaiflashtirdi. Bunday jarayonda ichki va tashqi kurashlarga Somoniylar davlati bardosh bera olmadi. Natijada, esa bu davlat oxir oqibat tanazzulga yuz tutdi. [Sultonov F. 2007. 106-b.].

Ismoil tarixda kuchli sarkarda va hukmdor sifatida tanilgan; arab va fors manbalarida u haqida ko'plab hikoyatlar yozilgan. Qolaversa, uning shimolga qilgan yurishlari tufayli uning imperiyasi dushman bosqinlaridan shunchalik kuchli ediki, Buxoro va Samarqand mudofaasi foydalanilmay qolgan edi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Ismoil Somoniy o'z davri uchun muntazam va zamonaviy qo'shin tuzdi, davlatni birlashtirish yo'lida sobitlik bilan harakat qildi. O'zbek davlatchiligi tarixida o'rta asrlar davrida bir mukammal davlatni o'z atrofida shakllantira oldi. Davlatning ham siyosiy, ham iqtisodiy va ijtimoiy, madaniy jihatdan o'z davri uchun mukammal bir shaklini yuzaga chiqaradi oldi. Zero, o'sha davr muarrixlari yozishicha, Ismoil Somoniy "...haqiqatan ham podshohlikka munosib edi. U adolatli, rahm-shafqatli, aql va farosat egasi edi, ishlarni adolat va odob-axloq bilan olib borardi. Kim odamlarga zulm qilsa, uni jazolardi. Davlat ishlarida hamisha xolis edi".



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sultonov F. O'rta asrlar tarixi. Toshkent. 2007.
2. Shamsiddin Kamoliddin., Timur Kocaoglu. O'zbek davlatchiligi tarixidan: Somoniylar sulolasi (IX-X asrlar). Toshkent. 2024.
3. Vohidov Sh. Qodirov A. Sharqning mashhur sulolalari. Toshkent. 2013.
4. www.wikipedia.org. internet sayti